

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR JINOYATCHILIGI PROFILAKTİKASINING TASHKILIY-HUQUQIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Raxmatov Kamoljon Ximmat o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari, uning ijtimoiy-huquqiy omillari hamda profilaktika tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, amaldagi qonunchilik, profilaktika mexanizmlarining samaradorligi va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy asosda yoritilgan. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda kompleks yondashuvni qo‘llash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Аннотация: В данной научной статье проанализированы причины возникновения молодежной преступности в Республике Узбекистан, ее социально-правовые факторы, а также организационно-правовые основы системы профилактики. Кроме того, на научной основе освещены действующее законодательство, эффективность профилактических механизмов и направления их совершенствования. Рассмотрены вопросы применения комплексного подхода к предупреждению молодежной преступности, а также усиления взаимодействия государственных органов и институтов гражданского общества.

Abstract: This scientific article analyzes the causes of youth crime in the Republic of Uzbekistan, its socio-legal factors, as well as the organizational and legal foundations of the prevention system. It also examines, on a scientific basis, the current legislation, the effectiveness of preventive mechanisms, and the directions for their improvement. Issues related to the application of a comprehensive approach to preventing youth crime, as well as strengthening cooperation between state authorities and civil society institutions, are also considered.

Kalit so‘zlar: yoshlar, jinoyatchilik, yoshlar jinoyatchiligi, huquqbuzarlik, profilaktika, profilaktika tizimi, tashkiliy-huquqiy mexanizm, davlat organlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy nazorat, profilaktika inspektori, kriminologiya.

KIRISH

Yoshlar jinoyatchiligi zamonaviy ijtimoiy-huquqiy voqelikning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, jahon miqyosida ham, O‘zbekistonda ham kompleks yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar, ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va raqamli makondagi salbiy axborotlar ta’siriga eng ko‘p

beriluvchi, huquqiy himoyaga muhtoj qatlam hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu masalaning dolzarbligi, birinchi navbatda, demografik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq. 2025-yil boshiga kelib, mamlakat aholisi 37,5 million nafardan oshgan bo‘lsa, shundan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar qariyb 56 foizni (21 milliondan ziyod) tashkil etmoqda. Xususan, profilaktika tizimining asosiy obyekti bo‘lgan 14-30 yoshdagi yoshlar soni 9,8 million nafardan ortiqni tashkil etishi¹, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat kriminologik, balki strategik ijtimoiy siyosat masalasi ekanligini isbotlaydi. Shu bois, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va nazoratsizlik kabi determinantlarni bartaraf etish, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda profilaktika tizimini raqamli monitoring asosida qayta qurish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir.

Hozirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar jinoyatchiligi ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy va pedagogik omillar bilan bevosita bog‘liq. Eshqobilov B.E. tadqiqotlarida: “Yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligining asosiy ijtimoiy sabablaridan biri ishsizlik va ijtimoiy tengsizlikdir. Bu omillar ularning jamiyatdagi o‘rnini zaiflashtiradi va jinoyatga tortilish ehtimolini oshiradi”. Shuningdek, yoshlar jinoyatchiligi rivojida oilaviy omillar katta rol o‘ynaydi. Oilaviy bo‘shliqlar, otanonaning yetarli e‘tiborsizligi, oila ichidagi nizolar yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum qiladi va ularni salbiy ta’sirlarga ochiq qiladi. Olimlar fikriga ko‘ra, oilaviy muhit va yoshlar ongining shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimidagi cheklanishlar ham yoshlar jinoyatchiligi rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasalari resurslarining yetishmasligi, malakali o‘qituvchilarning kamligi, ta’limdagi individual yondashuvning yetishmasligi yoshlarni salbiy faoliyatga undovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan salbiy kontent, zararli guruhlar va ekstremistik materiallar yoshlarning ijtimoiy ongiga salbiy ta’sir qilishini aytib o‘tadi.² Bizning nazarimizda Eshqobilov B.E. ta’kidlaganidek, yoshlar jinoyatchiligiga ijtimoiy omillarni kamaytirish uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, bandlikni oshirish va yoshlarni ijobiy ijtimoiy faoliyatga jalb qilish zarur.

J.Karimov va A.Kamalova tomonidan “*Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi*” maqolasi yoshlar orasida deviant (normadan chetga chiqadigan) xulq-atvorning sabablari va ularning oldini olish metodlarini ilmiy asosda izohlaydi.

✦ **Deviant xulq-atvor tushunchasi** — bu yoshlarning ijtimoiy me’yor va qadriyatlar bilan mos bo‘lmagan xulq-atvori bo‘lib, u o‘ziga xos sabablarga ega. Mualliflar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonning demografik holati: tahliliy ma’ruzalar to‘plami (2025-yil yanvar holatiga). – T.: 2025. – B. 12-14.

² Eshqobilov B.E. *Yoshlar jinoyatchiligiga olib boruvchi ijtimoiy-ommaviy omillar: internet, ishsizlik va tengsizlikning tahdidi*. Journal of Scientific Research and Their Solutions, Vol.6(01), 2025, mak. 12–25.

maqolada o‘smirlarning salbiy xulq-atvoriga olib keluvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida qayd etadilar:

Oilaviy nizolar: Oiladagi tarang muhit va ota-ona bilan konflik-munosabatlar yoshlarning ruhiy holatini beqaror qiladi va ularni qo‘shimcha stress hamda nazoratsiz vaqtga yo‘naltiradi.

- **Tengdoshlar ta’siri:** Tengdoshlar guruhi yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda juda muhim bo‘lib, salbiy tengdosh ta’siri deviant xulqning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- **Uyushmagan vaqt:** Yoshlarning ijtimoiy faoliyatsiz qolishi, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazmaslik holatlari deviant xulq-atvor xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Mualliflar fikricha, «*deviant xulq-atvorning oldini olish yoshlar bilan ishlash, oilaviy tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ijobiy vaqtni tashkil etish orqali samarali amalga oshirilishi mumkin*».³

J.Karimov va A.Kamalova tadqiqotida ta’kidlanganidek, yoshlarning deviant xulq-atvori asosan oilaviy nizolar, tengdoshlar ta’siri va uyushmagan vaqt bilan bog‘liq. Men tahlil qilganim shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitdagi taranglik va ota-ona bilan noto‘g‘ri munosabatlar yoshlarni salbiy xulq-atvor tomon yo‘naltiradi, tengdoshlar guruhidagi salbiy ta’sir bu jarayonni kuchaytiradi, uyushmagan va mazmunli bo‘lmagan vaqt esa qo‘shimcha xavf yaratadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar jinoyatchiligi va deviant xulq-atvori profilaktikasida kompleks yondashuv – oilaviy qo‘llab-quvvatlash, tengdoshlar ta’limi va ijtimoiy faoliyatni kengaytirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar jinoyatchiligini profilaktikasi milliy qonunchilik va normativ hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, bu tizimning samarali ishlashiga huquqiy kafolat yaratadi. Milliy qonunchilik yoshlarni jinoyatchilik va huquqbuzarlikdan himoya qilish, ularni ijtimoiy, pedagogik va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining fundamental asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasini alohida e’tirof etish lozim. Mazkur norma oila va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy mas’uliyat taqsimotini aniq belgilab beradi. Xususan, **77-moddada** ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, tarbiyasi va ta’lim olishi borasidagi g‘amxo‘rliги **konstitutsiyaviy majburiyat** darajasiga ko‘tarilgan . Bu esa yoshlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda **“Oila – profilaktikaning birlamchi bo‘g‘ini”** tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyada davlat va jamiyatning yetim hamda ota-ona vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalash borasidagi majburiyati

³ Karimov J.J., Kamalova A. *Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi*. Science and Education, 2024.

belgilangani, profilaktika tizimidagi **tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni** yanada kengaytirishni taqozo etadi.⁴ Ya'ni, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka moyillik omillarini kamaytirishda davlat nafaqat nazorat qiluvchi, balki **vasiylik va g'amxo'rlik qiluvchi subyekt** sifatida namoyon bo'ladi.

Yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada 1989-yildagi BMTning **“Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi** ham fundamental hujjat bo'lib, u davlat zimmasiga bolaning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan birga, ularni jinoiy muhit ta'siridan himoya qilish majburiyatini yuklaydi.⁵

O'zbekistonda yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini transformatsiya qilishda **«O'zbekiston — 2030» strategiyasi** muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur Strategiyada yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda «jinoyatchilikdan xoli mahalla» tamoyilini hayotga tatbiq etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Strategiyaning tashkiliy ahamiyati shundaki, unda profilaktika tizimini to'liq **raqamlashtirish**, huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolarni «mahallabay» hal etishning yangi mexanizmlari nazarda tutilgan. Xususan, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, kiber-makonda yoshlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar (KPI) belgilangan.⁶ Bu esa profilaktika subyektlari faoliyatini natijadorlik asosida baholashning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik profilaktikasining tashkiliy-huquqiy asosi sifatida 2016-yil 14-sentyabrdagi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunning o'rni beqiyosdir**. Mazkur hujjat bilan yoshlarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qat'iy belgilab qo'yilgan.⁷ Qonunning profilaktik ahamiyati shundaki, unda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan (5-modda). Shuningdek, Qonun yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va bandligini ta'minlash orqali jinoyatchilikka sabab bo'luvchi **determinantlarni** (omillarni) bartaraf etishning tashkiliy mexanizmlarini yaratadi. Aynan ushbu Qonun asosida bugungi kunda Yoshlar ishlari agentligi profilaktika subyektlari tizimidagi asosiy muvofiqlashtiruvchi organlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

⁴ <https://lex.uz/docs/-6445145>. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.

⁵ <https://lex.uz/docs/-2595913>. 20.11.1989-yil BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023yildagi PF-158-son

⁷ <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'risidagi qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar jinoyatchiligini profilaktikasi sohasida huquqiy asoslarning shakllanishi yangi bosqichga **2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun** bilan ko‘tarildi⁸. Mazkur qonun voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, profilaktika tizimining institutsional asoslarini yaratdi. Ushbu qonunning muhim jihati shundaki, unda “voyaga yetmagan”, “qarovsizlik”, “nazoratsizlik”, “ijtimoiy jihatdan xavfli ahvol” kabi tushunchalarga aniq huquqiy ta‘riflar berilgan bo‘lib, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qonun profilaktika subyektlari — ichki ishlar organlari, ta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi, vasiylik va homiylik organlari hamda Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni sohadagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish nuqtai nazaridan ushbu Qonunning bir qator normalari alohida ahamiyat kasb etadi: Qonunning 9-moddasida profilaktikani bevosita amalga oshiruvchi organlar doirasi aniq belgilangan. Bu yerda yoshlar bilan bevosita ishlovchi Ichki ishlar, Ta‘lim va Sog‘liqni saqlash organlarining funksional vazifalari deklarativ emas, balki imperativ (majburiy) tartibda ko‘rsatilgan. Qonun profilaktikani **umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik** turlarga ajratadi.⁹ Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni kamaytirishda, ayniqsa, *viktimologik profilaktika* (jinoyat sabablarini ilmiy tahlil qilish) va *yakka tartibdagi profilaktika* (aniq bir huquqbuzarlikka moyil yosh bilan ishlash) mexanizmlari qonuniy kuchga ega. Qonunda belgilangan “rasmiy ogohlantirish” yoki “profilaktik suhbat” kabi choralar ma‘muriy jazogacha bo‘lgan bosqich bo‘lib, bu yoshlarni “tamg‘alamasdan” (labeling theory) ularni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishning tashkiliy-huquqiy asosidir.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining **Oila kodeksi** voyaga yetmaganlar profilaktikasining ijtimoiy-tarbiyaviy asosini tashkil etadi. Xususan, 63–79-moddalarda ota-onalarning bolalarga nisbatan majburiyatlari belgilangan bo‘lib, ularni suiiste‘mol qilish, zo‘ravonlik yoki beparvolik holatlarida ota-onalik huquqidan mahrum qilish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.¹⁰ Bu norma bolalarni oiladagi

⁸ <https://lex.uz/docs/-1685726>. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni

⁹ <https://lex.uz/mact/-2387357>. O‘zbekiston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonuni. 2014-yil 14-may, O‘RQ-371-son.

¹⁰ <https://lex.uz/mact/-104720>. O‘zbekiston Respublikasi *Oila kodeksi*.

salbiy muhitdan himoya qilish orqali jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi *Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida* nazarda tutilgan normalar voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda **profilaktikaning dastlabki va muhim bosqichi** hisoblanib, “to‘xtatib qoluvchi” (deterrent) filtr vazifasini o‘taydi. Kodeksning profilaktik ahamiyati shundaki, u yoshlar o‘rtasida og‘irroq jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida mayda huquqbuzarliklar uchun huquqiy ta’sir choralari belgilaydi shuningdek ota-onalar, vasiylar va boshqa mas’ul shaxslarning javobgarligini belgilash orqali yoshlarni salbiy muhitdan himoya qiladi.¹¹

Xususan, kodeksda belgilangan quyidagi moddalar profilaktik ahamiyatga ega:

1. Ota-ona majburiyatlari va ularning buzilishi: 47-modda hamda unga bog‘liq normalar (47¹, 47², 47³, 47⁴, 47⁶, 47⁷) ota-onalarning farzand tarbiyasi va ularning huquqlarini ta‘minlashdagi majburiyatlarini mustahkamlaydi. Bu normalarga ko‘ra: bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish majburiyatlarini bajarmaslik, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqida xabar bermaslik, bunday bolalarni joylashtirish tartibini buzish, voyaga yetmaganlarni moddiy ta‘minlamaslik, bolani nazoratsiz qoldirish yoki unga nisbatan beparvo munosabatda bo‘lish kabi holatlar uchun ma‘muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur normalar orqali davlat ota-onalarning huquqiy mas‘uliyatini kuchaytiradi va oiladagi nosog‘lom muhitni erta bosqichda aniqlash hamda bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka kirib borish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

2. Vasiylik va homiylik tizimi bilan bog‘liq normalar: 48-modda va unga yaqin normalar vasiylik huquqini suiiste‘mol qilish hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan mas‘uliyatni bajarmaslik holatlarini tartibga soladi. Bu yerda asosiy e‘tibor voyaga yetmaganlarning himoyasiz qatlamini – ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan. Vasiylik va homiylik institutiga oid normalar ijtimoiy himoya mexanizmining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali davlat voyaga yetmaganlarning huquqlarini kafolatlaydi hamda ularni jinoyatchilik va ekspluatatsiya xavfidan himoya qiladi.

3. Voyaga yetmaganlarni salbiy xatti-harakatlarga jalb etish bilan bog‘liq normalar: Kodeksning 188, 188¹, 188²-moddalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular: voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etishga undash, tungi vaqtda ko‘ngilochar joylarda bo‘lishiga yo‘l qo‘yish kabi holatlar uchun javobgarlikni belgilaydi. Bu normalar bevosita yoshlarning deviant xulq-atvori shakllanishiga qarshi qaratilgan. Mazkur moddalar

¹¹ <https://lex.uz/acts/-97664>. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi. 22.09.1994 yildagi qonuni.

yoshlarni jinoyatchilik muhitiga kirib qolishidan himoya qiluvchi muhim preventiv vosita bo‘lib, ayniqsa, tashqi salbiy ta‘sir — tengdoshlar bosimi, ko‘ngilochar muhit va nazoratsizlik omillarini cheklashga xizmat qiladi.

4. Mehnat va ekspluatatsiya bilan bog‘liq normalar: Voyaga yetmaganlarning mehnatidan noqonuniy foydalanishga doir normalar ham profilaktik tizimda muhim o‘rin egallaydi. Bu orqali bolalar mehnatining ekspluatatsiyasi, ularning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi faoliyatga jalb etilishi oldi olinadi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda nazarda tutilgan normalar va yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmida **vazifaviy (funktional) asos** bo‘lib, erta ogohlantirish bosqichini tashkil etadi va profilaktika subyektlarining huquqbuzarlarga nisbatan ta‘sir choralari qo‘llash bo‘yicha amaliy vakolatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Ushbu normalar orqali ota-onalar, vasiylar va jamiyatning boshqa subyektlari zimmasiga aniq huquqiy majburiyatlar yuklanadi. Natijada, huquqbuzarliklarning ildiz sabablari – nazoratsizlik, beparvolik va ijtimoiy e‘tiborsizlikning oldi olinadi. Shu bilan birga, mazkur normalar asosan jazolashga yo‘naltirilgan, psixologik va ijtimoiy profilaktika mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishning yakuniy huquqiy asosi **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi** hisoblanadi. Kodeksning profilaktik ahamiyati uning **umumiy preventiv** (boshqalarni jinoyatdan qaytarish) va **maxsus preventiv** (jinoyat sodir etgan shaxsni qayta tarbiyalash) funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, Kodeksning VI bo‘limi («Voyaga yetmaganlarning javobgarligi xususiyatlari») yoshlar bilan ishlashning insonparvarlik tamoyillarini o‘zida aks ettiradi.¹² Unda jinoiy javobgarlik yoshi, jazo turlarining cheklanganligi va jazodan ozod qilishning maxsus asoslari belgilangan bo‘lib, bu yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasida nafaqat jazolash, balki **reabilitatsiya qilish** tashkiliy mexanizmini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Shu bilan birga, JKda jinoiy jazo choralari qo‘llanilishi profilaktika subyektlari (IIV, prokuratura, sud) uchun kelgusida ushbu shaxslar bilan **maxsus profilaktika** ishlarini olib borishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI:

O‘zbekistonda yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tizimda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Tadqiqot doirasida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- 1. Idoralararo raqamli hamkorlikning sustligi:** Bugungi kunda "Mahalla yettiligi" tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, profilaktika subyektlari (IIV, Yoshlar

¹² <https://lex.uz/docs/-111453>. 22.09.1994 yil O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi) o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashuvchi yagona integratsiyalashgan kriminologik platforma mavjud emas.

2. **Kiber-makonda profilaktika mexanizmlarining yetishmasligi:** 2025-yilgi statistik tahlillar yoshlar o'rtasida kiberfiribgarlik va narkotik vositalarning onlayn savdosi (darknet) ortib borayotganini ko'rsatmoqda, biroq amaldagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda raqamli profilaktika (e-prevention) choralari huquqiy jihatdan yoritilmagan.
3. **Ijtimoiy rehabilitatsiya tizimidagi bo'shliqlar:** Jazoni o'tab qaytgan yoki huquqbuzarlikka moyil yoshlarni ijtimoiy moslashtirishda faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolinmoqda. Tashkiliy jihatdan ularning psixologik va ma'naviy rehabilitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan nodavlat sektorning ishtiroki sust.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- **"Profilaktika kodeksi"ni qabul qilish:** Tarqoq holdagi profilaktika qonunchiligini kodifikatsiya qilish orqali barcha subyektlarning vazifalarini "yagona zanjir" tamoyili asosida birlashtirish lozim.
- **"Kiber-profilaktika inspektori" shtatini joriy etish:** Har bir tuman (shahar) IIB tarkibida raqamli makonda yoshlar xavfsizligini ta'minlovchi va virtual profilaktik tadbirlarni amalga oshiruvchi maxsus kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.
- **"Smart Prevention" milliy axborot tizimini yaratish:** Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida kriminogen vaziyatni prognoz qiluvchi, xavf ostida bo'lgan yoshlarni barvaqt aniqlab, ularga avtomatik ravishda ijtimoiy xizmatlarni (ish, ta'lim, psixologik yordam) yo'naltiruvchi raqamli platformani joriy etish.
- **Ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish:** MJtKga voyaga yetmaganlar uchun jarima choralardan ko'ra ko'proq ijtimoiy-foydali mehnatga (ko'ngillilik, obodonlashtirish) jalb qilish kabi muqobil profilaktik ta'sir choralari kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish — bu nafaqat qonun hujjatlariga punktual o'zgartirishlar kiritish, balki har bir yosh avlod vakilining ijtimoiy muammolarini (ta'lim sifati, bandlik darajasi, psixologik salomatligi) **zamonaviy kriminologik bashorat va raqamli monitoring** vositalari orqali tahlil qilish, ularga nisbatan **individual rehabilitatsiya choralari**ni huquqiy jihatdan kafolatlash hamda davlat va jamiyat institutlarining o'zaro muvofiq harakatiga asoslangan **yaxlit strategik boshqaruv jarayonidir**. Binobarin, ushbu mexanizmning

samaradorligi profilaktika subyektlarining jazoga emas, balki **shaxsni ijtimoiy moslashtirishga** qaratilgan insonparvarlik yondashuvi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023-y. (77-modda).
2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan).
3. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha BMT ko‘rsatmalari (Riyod ko‘rsatmalari). BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrda 45/112-sonli rezolyutsiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr, O‘RQ-406-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2014-yil 14-may, O‘RQ-371-son.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2010-yil 29-sentyabr, O‘RQ-263-son.
7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentyabr (2024-2025 yillardagi o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan).
8. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 1994-yil 22-sentyabr (2024-2025 yillardagi o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan).
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

II. Statistik ma’lumotlar va hisobotlar:

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonning demografik holati: tahliliy ma’ruzalar to‘plami (2025-yil yanvar holatiga). – Toshkent, 2025.
11. O‘zbekiston yoshlari: statistik to‘plam. – Toshkent: Statistika agentligi nashri, 2024.
12. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining 2024-yil yakunlari bo‘yicha tahliliy axboroti.

III. Ilmiy adabiyotlar va elektron resurslar:

13. Kriminologiya: Darslik. Mas’ul muharrir: y.f.d., prof. X.R.Ochilov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023.
14. Yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasi: muammo va yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2024.
15. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

16. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sayti: www.un.org.
17. Eshqobilov B.E. *Yoshlar jinoyatchiligiga olib boruvchi ijtimoiy-ommaviy omillar: internet, ishsizlik va tengsizlikning tahdidi*. Journal of Scientific Research and Their Solutions, Vol.6(01), 2025, mak. 12–25.
18. Karimov J.J., Kamalova A. *Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi*. Science and Education, 2024.

